

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Alisher Navoiy nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti

O'zbekiston tarixi kafedrasida

O'zbekiston tarixi fani

Mavzu: Buxoro amirligida ularning mansab va
amaldorlari

Referat

2014-2015 o'quv yili

Bajaruvchi: Eshboyev M

Ilmiy rahbar: Qo'shboqov H.

Samarqand 2015-yil

Mavzu: Buxoro amirligida ularning mansab va amaldorlari

Reja:

1. XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligi
2. Buxoro amirligida madaniy hayot
3. Ichki va tashqi savdoning rivojlanishi

Buxoro xonligida XVIII asr o'rtalarida yuz bergan siyosiy voqealarda mang'it urug'i vakillarini Buxoro xonligi taxtiga olib chiqdi. Davlat hukmdorlari «amir» unvoni bilan yuritiladigan bo'ldi va davlat ham Buxoro amirligi degan nom oldi. Buxoro amirligi tarixiga oid yozma manbalar ichida «Qushbegi arxivi» hujjatlari, «Tarixi salotini mang'itiya», «Tuhfai shohiy», «Dostoni amironi mang'it», «Tarixi amiri Haydar», «Gulshan al-muluk», «Risolai muxtasari az tarixi salotini xonadoni mang'itiya» kabi mahalliy tillarda yozilgan asarlar bilan bir qatorda rus tarixchilaridan E.K.Meyndorf tomonidan 1820 yilda yozilgan «Orenburgdan Buxoroga sayohat», 1833 yilda tatar mullosi Mirzo Ja'far nomi bilan 4 oy Buxoroda yashagan P.I.Demezoning «Buxoro xonligi haqida qaydlar», 1841 yilda Butenov elchiligi tarkibida Buxoroga tashrif buyurgan I.Xanikovning «Buxoro xonligi ta'rifi» kabi asarlarini keltirib o'tish mumkin. Shuningdek, ingliz josuslik hizmati vakillari Mir Izatullo va A.Berns tomonidan hamda A. Vamberi tomonidan yozilgan asarlar ham Buxoro amirligining XIX asr birinchi yarmi tarixiga oid muhim manbalar qatoridan o'rin olgan. 2-masala: Ashtarxoniylar inqirozi va Abulfayzxonning o'limi bilan barxam topa boshlagan Buxoro xonligi taxti bir necha yillar davomida (1747-1756) ashtarxoniy shahzodalar tomonidan boshqarilgan bo'lsada, hokimiyat amalda mang'itlar urug'idan bo'lgan Muhammad Rahim qo'liga o'tib qolgan edi. Muhammad Rahim o'z hukmronligining dastlabki yillarida markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning barqarorlashuvidan manfaatdor bo'lgan yirik er egalari, savdogarlar, ulamolar va fuzalolar uning bu siyosatini qo'llab-quvvatladilar. Ishni avvalo saroy amaldorlarini o'zgartirishdan markaziy boshqaruvni tartibga solishdan boshlagan Muhammad Rahim asta-sekin viloyatlar hokimligiga ham o'ziga sodiq odamlarni qo'yishga kirishdi. Buning uchun u separatistik kayfiyat juda kuchli bo'lgan Shahrisabzga 1750-1752 yillarda 4 marta yurish qilib, bu erdagi muhim mudofaa qo'rgonlari (Kitob, Sangfurush, G'ovmish, Qushchi) ni egalladi va vohada o'z hokimiyatini to'laligicha o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. G'uzor ham Buxoro

hokimiyatini tan oldi. Muhammad Rahim Miyonqol, Nurota, Urgut, Kabodiyon, Boysun kabi viloyatlarga ham yurishlar uyushtirib, markaziy hokimiyatni tan olishga majbur qildi. 1753-1756 yillarda Zarafshon vohasining yuqori oqimi, Jizzax, Zomin ham Buxoro amirligi tarkibiga qo'shib olindi. Buxoroning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash maqsadida 1752-1753 yillarda shaharning eski devori yonida yangi mudofaa devori (2 m) qurildi. O'z hokimiyatini mustahkamlab olgan g'ayratli Muhammad Rahimni Buxoroning qonuniy hukmdori sifatida tan olib Qo'qon, Toshkent, Marv, Balx va Qunduz vakillari va hukmdorlari rasmiy elchiliklar yubordilar. Muhammad Rahim vafotidan so'ng taxtga uning tog'asi, Miyonqol xokimi Doniyolbiy o'tirdi. Uning hukmronligi davrida (1759-1784) markaziy hokimiyat zaiflashdi va urug'lar o'rtasidagi nizolar markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlar ko'paydi. Bunday hol butun mamlakat bo'ylab yoyildi. Yuz, kenagas, burgut, baxrin, saroy kabi yirik o'zbek urug'lari birlashib, Buxoroga qarshi yurish qildilar. Biroq isyonchilar halqning qo'llab quvvatlashlari tufayli bostirildi. Bu voqea Doniyolbiy hukmronligining dastlabki yillaridayoq yuz bergan edi. 1771 yilda Shahrisabz va G'uzor beklilarida davlatga qarshi kuchli qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon juda katta qiyinchilik bilan bostirildi. Qo'zg'olon rahbarlari qatl qilindi. Mamlakatda g'alayonlarning to'xtovsiz davom etib turganligi markaziy hokimiyatning obro'si va qudratini zaiflashtirdi. Bu hol iqtisodiy ahvolning ham yomonlashuviga olib keldi. 1784 yilda ko'tarilgan navbatdagi qo'zg'olon natijasida mamlakatda hukmdor o'zgardi va taxtga Doniyolbiyning o'g'li Shohmurod o'tkazildi. Shohmurod Buxoro amirligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan hukmdorlar sirasiga kiradi. U mang'itlar sulolasi hukmdorlari orasida eng birinchi bo'lib «amir» unvoni bilan davlatni boshqardi. Shunga ko'ra bu davlat ham Buxoro amirligi degan nom oldi. Tarixda «amir mas'um» (Begunoh amir) nomi bilan mashhur bo'lgan Shohmurod hukmronligi yillari (1785-1800) Buxoro amirligida markaziy hokimiyat boshqaruvining nisbatan mustahkamlanishi davri hisoblanadi. Shohmurod ham boshqa hukmdorlar kabi markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan ayrim beklklarga qarshi harbiy yurishlar uyushtirdi va davlatning hududiy

yaxlitiligini saqlab qolishga harakat qildi. Shohmurod faqatgina siyosiy hokimiyatni mustahkamlab qolmasdan, bir qator ma'muriy iqtisodiy-madaniy tadbirlarni ham amalga oshirdi. O'z hayotini kamtarona darveshlarga xos tarzda o'tkazgan bu hukmdor Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridagi, Amudaryo bo'ylaridagi sug'orish tizimlarini qayta tiklab, yangi inshootlar, ko'priklar, yo'llar va boshqalarni barpo ettirdi. Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan moliya, sud, ma'muriy va harbiy sohalaridagi islohotlar natijasida mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy hayot birmuncha jonlandi. Amir Shohmurod o'g'li Amir Haydarni mang'itlarning ota meros mulki hisoblangan va amirlikda katta nufuzga va mavqega ega bo'lgan Qarshi shahriga hokim etib tayinlandi. Shundan boshlab mang'itlar sulolasi taxt vorislarining Qarshida hokimlik qilishlari odat tusiga kirdi. Shohmuroddan so'ng taxtga Amir Haydar otasining siyosatini davom ettira olmadi va uning hukmronligi yillarida (1800-1826) mamlakatda siyosiy keskin vaziyat hukm surdi. Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan Shahrisabz, Urgut, Miyonqol bekliklariga qo'shin tortishga majbur bo'ldi. Harbiy yo'l bilan qo'lga kirita olmagan viloyatlar boshqaruvini kelishuvchilik yo'li bilan o'z beklari qo'lda qoldirishga majbur bo'ldi. Hususan, bo'ysunmagan Shahrisabz mahalliy hokim Doniyor vallomaga mulk sifatida taqdim etildi va Shahrisabz buning natijasida 1858 yilgacha mustaqil ravishda hukm surdi. O'ratepa bekligi bo'ysundirilib, amirlik hududlari birmuncha kengaytirildi. Bu davrda qo'shni xonliklar bilan munosabatlar ham keskinlashdi. Xiva xonligi tomonidan uyushtirilgan bir qancha bosqinchilik yurishlari asosan xalq ko'magida qaytarildi. Qo'qon xonligi bilan munosabatlar esa ancha jiddiy va keskin tus oldi. Azaldan Buxoroga tobe hisoblangan Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Xo'jan va boshqa chegara bo'ylab joylashgan shaharlarga qo'qonliklarning tajovuzlari ancha keskin tarzda kuchayib bordi. Amir Haydar 1807-1810 yillarda Qo'qon xoni Olimxon bilan Toshkent, O'ratepa, Jizzax, Zomin shaharlari uchun qo'ldan-qo'lga o'tib turdi. Amir Haydar vafotidan so'ng taxtni uning uchinchi o'g'li Nasrullo egalladi. O'z akalari Xusayn va Umarni o'ldirib taxtni egallagan Nasrullo mang'itlar sulolasining va Buxoroning eng qonxo'r va zolim vakili sifatida tarixda qolgan. Shunga qarmay Amir Nasrullo

markaziy davlat hokimiyatni mustahkamlagan, harbiy sohada ancha samarali islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovor holatini oshirgan, mamlakatning hududiy yaxlitligini birmuncha tiklagan hukmdor ham edi. mir Nasrullo hukmronligi (1826-1860) davri ichki va tashqi dushmanlar bilan to'xtovsiz kurashlar ostida o'tdi. O'z dushmanlarida qo'rquvni kuchaytirish maqsadida ko'plab kishilarni qatl ettirgani uchun Nasrullo halq orasida «Qassob amir» nomi bilan atalgan edi. Markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida olib borilgan to'xtovsiz kurashlar Nasrulloga nisbatan norozilikni kuchaytirib yuborgan edi. Nasrullo bo'ysunmagan beklarga qarshi kurashar ekan, shavqatsiz bo'lishga intildi. Shahrisabz bekligiga qarshi olib borilgan kurash uzoq vaqt davom etdi va 1832 yildan 1858 yilgacha davom etdi. Amirlikning shimolidagi chegara shaharlari (Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax, Zomin) uchun Qo'qonliklar bilan bo'lgan janglar uzoq davom etdi va janglar Buxoro foydasiga hal bo'la boshladi. Amir Nasrullo 1842 yilda Qo'qon xonligi poytaxtini ham egalladi va Qo'qon xoni Muhammad Alixonni oila a'zolari bilan birga qatl ettirdi. Qo'qonning egallanishiga ba'zi Qo'qonlik amaldorlari ham yordam bergan edilar. Xiva xonligi bilan ham nizoli vaziyatlar saqlanib qoldi. Amir Haydar hamda Nasrullo hukmronligi davrida Rossiya va Angliyaning manfaatlari O'rta Osiyoda to'qnashdi. Bu davrda Hindistonni egallagan va Afgonistonda katta ta'sirga ega bo'lgan Angliya, Buxoro amirligiga o'z vakillarini yubora boshlaydi. U IX asrning 30-40 yillarida amirlikda bir qancha ingliz razvedkasi xodimlari Murkroft (1824), A.Berns (1831), Mayor Volf (1843), hamda amir Nasrulla tomonidan qatl etilgan (1838) polkovnik Stoddart va mayor Konnolilar bo'lishib, bu erda Rossiyaga qarshi Buxoro-Xiva ittifoqini tashkil qilishga urinib ko'rdilar, biroq bu urinish natijasiz yakunlandi. Amir Nasrullo davrida chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklari chegaralariga yaqinlashishi davom etdi. Rossiya hukumati ham Buxoroga o'z ta'sirini o'tkazishga urinib ko'rdi. XIX asrning 60 yillariga qadar Rossiya imperiyasining maxsus elchilari ham o'z manfaatlarini ko'zlab 4 marotaba Buxoroga yuborildilar. Buxoroga yuborilgan bu rus maxfiy hizmati vakillariga maxsus topshiriqlar berilgan bo'lib, ular mamlakatning siyosiy-iqtisodiy ahvoli, shaharlar va mudofaa

qo'rg'onlari, qo'shin tuzilishi, quro-yarog'lar va boshqa shu strategik ahamiyatga ega holatlarni o'rganishlari lozim edi. Bu ma'lumotlar keyinchalik Rossiya imperiyasining xonliklarini istilo qilishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi.

3-masala: Dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari edi. Avvalgidek davlatga amir va uning yaqinlariga qarashli davlat erlari, hususiy mulkdorlarga tegishli er-mulklar (mulki holis), diniy mahkamalar, madrasa va masjidlar, qabristonlar harajatlari uchun berilgan vaqf erlari mavjud edi. Dehqonchilikda barcha sohalar an'anaviy ravishda o'z taraqqiyotida davom etdi. Bu davrda ayniqsa uzumchilik, sholikorlik, paxta va tamaki etishtirish ancha taraqqiy etdi. Chorvachilik amirlik hududidagi bepayon dasht va cho'llar tog' va tog' oldi hududlarida mavjud edi. Cho'l xududlarida xususan, Buxoro va Qarshi atroflaridagi dashtlarda qorako'l teri etishtirish kengayib bordi. Tashqi bozordagi qorako'l teriga talabning kuchliligi qorako'l qo'ylar etishtirishni kengaytirishga olib kelgan edi. Shuningdek, chorvachilikda yilqichilik, bunda ham asosan Buxoro qorabayir otlarini etishtirish taraqqiy etgan edi. Bundan tashqari yirik qoramollar etishtirish va chorvachilik mahsulotlari tayyorlash ham ancha taraqqiy etdi. Hunarmandchilik asosiy yirik shaharlar bilan bir qator yirik qo'rg'onlar va qishloqlarda ham keng tarqalib bordi. Hunarmandchilikning barcha sohalarida o'z kasb uyushmalari mavjud bo'lib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan va barcha ishlab chiqarish jarayoni nazorat qilingan. Chetdan shogird yollash kam uchraydigan holda bo'lib, hunarmandchilik sirlari asosan otadan o'g'ilgan meros sifatida qoldirilgan. Hunarmandchilikdagi etkachi tarmoq to'qimachilik bo'lgan. Bunga sabab bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kuchli bo'lsa, ikkinchi tomondan to'qimachilik uchun zarur bo'lgan xom ashyolarning mahalliy ekanligi va etarli bo'lganligi edi. Hunarmandchilikning rivojlangan sohalaridan yana biri kulolchilik edi. Uning asosiy markazlari G'ijduvon, Qarshi, Shaxrisabz, Kattaqo'rg'on bekliklarida edi. Rossiya istilosi va mustamlakasi davrida chinni mahsulotlarining ko'payishi kulolchilarning orqaga ketishiga sabab bo'lgan bo'lsada, amirlikda bu soha o'z taraqqiyoti yo'lida davom etdi va yuqoridagi holat asosan Turkiston

general-gubernatorligiga qarshi joylarda yuz bergan edi. Shuningdek, amirlikda metallarga ishlov berish va undan turli xo'jalik mahsulotlari tayyorlash ancha keng tarqalgan. Metallarga ishlov berish ishlarini asosan 4 turga bo'lib ko'rsatish mumkin: Temirchilik. Temirchiliklar asosan qishloq xo'jalik qurollari va kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar yasash bilan birga harbiy qurol-yarog'lar ham yasaganlar. Misgarlik. Misgarlik asosan yirik shaharlarda rivojlangan. Misgarlar turli idishlar, chilim, kundalik extiyoj buyumlari yasashgan. Mis asosan Rossiyadan keltirilgan. Misga ishlov berish san'at darajasiga ko'tarilgan bo'lib, mahsulotlar ichki va tashqi bozorda alohida talab darajasida bo'lgan. Cho'yan quyish (degrezlik). Bu ham katta ahamiyatga ega hunar turlaridan sanalgan. Ular asosan cho'yan qozon, mankaldon (cho'g'don) va boshqa shu kabi buyumlar yasashgan. Rixtagarlik. Bronzadan buyumlar yasash ham amirlikning ko'pgina shaharlarida rivojlangan edi. Bu ustalar turli zeb-ziynat buyumlari, tuli metall mahsulotlarning qismlari yasashgan. Yuqorida keltirilgan va sanab o'tilgan hunarmandchilik turlari bilan bir qatorda amirlikda zargarlik, kunchilik, duradgorlik, novvoylik va boshqa bir qator sohalar ham mavjud ediki, bular ham amirlikning iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etardi. XIX asr o'rtalariga kelib Buxoro amirligi siyosiy vaziyatlar tufayli ikkinchi darajali davlatlar qatoriga tushib qolgan bo'lsada, yirik savdo mamlakati sifatida katta ahamiyatga ega davlat hisoblanardi. Ichki savdo bilan bir qatorda tashqi savdo aloqalari ham taraqqiy etib bordi va bunda Rossiya asosiy tashqi savdodagi sherik bo'lib qoldi. Savdo jarayonida uch turdagi pul vositasidan – tillo, tangani (kumush) va pul (mis) dan foydalanilgan. XIX asr oxirida Buxoro amirligi aholisi 2 million kishi atrofida bo'lgan. Uning tarkibiga Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo vohasi va hozirgi Tojikiston hududining ayrim viloyatlari, hozirgi Turkmanistonning Murg'obgacha bo'lgan bir qismi kirar edi. Shahar va qishloqdagi aholining ko'pchilik qismida o'zbeklar, tog' va tog'oldi joylarida tojiklar yashar, Marvning janubiy hududlarida turkmanlar, shimoliy va sharqiy yerlarda qozoq va qirg'izlar yashar edi.

Rossiya bilan 1868-yilgi shartnoma Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. Sobiq "islom gumbazi" suverenitet va mustaqillikdan mahrum bo'lib, Rossiyaga qaram va mute bir davlatga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'lsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo'lida saqlab qolgan edi.

1885-yil Buxoroda ish boshlagan "**Rossiya imperatorining siyosiy agentligi**" amir va uning amaldorlari faoliyatini nazorat qila boshladi. Agentlik, shuningdek, Rossiya imperiyasi hukumatining Rossiyadan boshqa davlatlardan mol olib kirishni taqiqlovchi huquqqa ega bo'lgan. Avvalgidek, davlat idoralarida ko'pchilikni tashkil etgan mang'itlar sulolasi vakillari amirning tayanchi hisoblanar edi.

Amir ixtiyoridagi saroy xizmatida turli lavozimlarni egallagan kishilar soni 3 mingdan oshar edi. Kattato'ra unvoniga ega bo'lgan Karmana viloyati hokimi Buxoro taxtining vorisi bo'lib, qolgan bekliklarga ham amirning yaqin qarindoshlari hokimlik qilishardi.

XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi 200 ming kv.km ni tashkil etar edi. Aholining asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik edi. Ancha katta shaharlari: Buxoro (poytaxt), Chorjo'y, Kitob, Shahrisabz, Denov edi. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa vodiylar Buxoro amirligi tarkibiga kirardi.

Davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor **qushbegi** bo'lib, u soliqlar yig'imini boshqarar, ma'muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borar edi. Qushbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida **ma'lumot** berib turar edi. Barcha amaldorlar qushbegi tomonidan, faqat oliy amaldorlargina amirning o'zi tomonidan tayinlanar edi. Xazina va zakot yig'imini boshqargan **devonbegi** lavozimi ahamiyati va mavqei jihatidan qushbegidan keyin turardi. Uning ixtiyorida 300 dan ziyod amaldor bo'lgan. Sudlov, notariat ishlarini, ruhoniylar va ta'lim muassasalarini boshqargan boshqozi diniy-sudlov ishlariga rahbarlik qilardi.

Sud hokimiyatiga amirning o'zi rahbarlik qilardi. Sud tizimida amirdan keyin ko'rib chiqilayotgan ish yuzasidan fatvo (xulosa) tuzuvchi muftiylar devoniga rahbarlik qiluvchi **bosh qozi** turardi. Joylarda sud hokimiyatini **qozilar** idora etardi. Politsiya hokimiyati esa **mirshablar** (tungi qorovullar boshliqlari) qo'lida jamlangan edi.

Oliy amaldorlar qatoriga qonunlar ijro etilishi, din musaffoligi va axloq muhofazasi, shuningdek, bozordagi tarozilar va o'lchovlar ustidan nazorat qiluvchi **rais** ham kirardi. Rais bosh qoziga bo'ysunardi. Bosh rais amir va bosh qoziga ma'lumot bilan shaxsan kelishi mumkin edi. Uchala oliy amaldor — qushbegi, devonbegi va bosh qozi har doim Buxoroda bo'lishi lozim edi. Beklar va **ularning** mol-mulkini harbiy ta'lim ko'rgan askarlar — **navkarlar** qo'riqlashardi.

Mahalliy ma'muriyat — **aminlar**, **oqsoqollar** hamda beklklar vakillari va amir farmonlarini ijro ctishi **shart** bo'lgan ruhoniylardan iborat edi.

Barcha sohalardagi amaldorlar beklar va amirlikning oliy amaldorlari safi ularning o'g'illaridan, ko'pincha aslzoda beklar va xonlarning xonzoda deb nomlanuvchi tabaqasidan to'ldirilar edi.

Buxoro amirligi 27 ta beklikka bo'lingan edi. Beklar shaxsan amir tomonidan tayinlanar va lavozimidan bo'shatilar edi. Beklar huzurida ularning qarindoshlari yoki yaqin kishilaridan tayinlangan ulkan amaldorlar guruhi bo'lgan.

Davlatni himoya qilish uchun amirning xalq ko'ngillilari va qo'shinlardan saralab olingan xos lashkari bo'lgan. Lashkarga to'pchiboshi (to'pchilashkar) rahbarlik qilgan. Biroq XIX asr oxiriga kelib, amir lashkari shoshilinch yig'iluvchi, yomon ta'lim ko'rgan va qoloq harbiy qurollar bilan ta'minlangan dehqonlardan iborat bo'lgan. Bunday lashkarning bosh maqsadi — zarur bo'lganda Ark qarshisida namoyishga yig'ilish edi. Lashkar amalda XIX asr boshlaridan beri rivojlanmagan, harbiy ish va qurollari o'ta qoloq holatda edi. Lashkarning soni 11 ming sarboz va 200 zobit (ofitser)dan iborat bo'lib, ularning qurol-aslahasi 1000 ta berdanka miltig'i va bir nechta to'plardan tashkil topgandi.

Shunday qilib, bir-biriga qarindosh-urug` bo`lgan amaldorlarning yuki dehqon va hunarmandlar yelkasiga tushdi. Mamlakat daromadlarining katta qismi davlat ravnaqi va taraqqiyoti uchun kamdan-kam qayg`uruvchi xizmatchilariga sarflanar edi.

AHOLINING AHVOLI

Buxorolik dehqonlarning aksariyat ko`pchiligi kambag`allikda kun kechirardi, chunki yer va ish hayvonlari amir va uning amaldorlari qo`lida edi. Mang`it amirlari Buxoroda butun hokimiyatga ega bo`lib, ularning zo`ravonlik bilan hokimiyatga putur yetkazishi mumkin bo`lgan biron-bir norozilik chiqishlariga yo`l qo`yishmasdi. Davlatda hurfikrlik, norozilikka nisbatan o`ta murosasizlik kuzatiladi. Amir vauning a'yonlari mamlakatdagi siyosiy ahvol ustidan sergaklik bilan kuzatib turishardi. Davlat amaldorlari keng tarmoqlangan armiyasini moddiy ta'minlash uchun moliyaviy mablag`larni kemirardi. Amirning Peterburgga oqpodsho saroyiga katta sovg`a-salom bilan har yili borishi, shuningdek, Qrim va Kavkazga borganida ehsonlar qilishi va saroylarni sotib olishi bilan bog`liq bo`lgan ulkan sarf-xarajatlari ham aholi yelkasiga og`ir yuk bo`lib tushar edi.

Buxoro amirligidagi soliqlardan aholining 90 foizini tashkil etuvchi dehqonlar hammadan ko`p aziyat chekardi. Dehqonlardan ko`pi kasodga uchradi va shaharlarga yollanib ishlash uchun ketib qolishdi. Soliqlarni to`lash uchun ular olibsotarlar, sudxo`rlar, yirik zamindorlar yerlarida mehnat qilishga majbur bo`lishar edi.

Dehqonlar zulm bilan murosqa qila olmay, zolimlarga qarshi oshkora qarshi chiqdilar. 1916-yildan keyin dehqonlar qo`zg`alonlari yalpi ommaviy harakatga aylanib, amalda amhiikning barcha bekliklarini qamrab oldi. Norozilik chiqishlari aksariyati stixiyali, uyushmagan bo`lsa-da, ular amirlik hokimiyatini nuratib borardi.

Amir **Muzaffar** hukmronligi davrida (1860—1885) ijtimoiy zulm haddan oshdi. Bu davrda soliqqa tortishda pul ko`rinishidagi yig`imlar yetakchi o`rinni egallagan edi. Ishlab berish majburiyatlariko`rinishidagi ishbay renta ham keng

qoilanardi. Xiroj, zakot va juz'ya asosiy soliqlar edi. Yerdan olinuvchi **xiroj** solig'i miqdori ayrim viloyatlarda hosilning 40-50 foiziga yetardi va amir daromadlarining yarmidan ko'pini tashkil etardi. Xiroj bilan bir mahalda **kafsan** soliq yig'imi ishlari uchun, **dorug'a** — xirmonlarni xatga olgani uchun amaldoiga dorug'ayi muzd ham undirilardi. Chorvadorlar mollari qiymatidan 2,5 foiz **zakotto**lashardi. Bog'lar va polizlardan alohida yig'im — **tanobona** to'langan. Dehqonlar ma'muriyat vakillari yerlarni egallab olishidan, mahalliy hokimiyat va sud hokimiyati namoyandalarining poraxo'rliigi va tovlamachiligidan azob tortishar edi. Agar dehqonning soliqni to'lashga puli bo'lmasa, uning mol-mulki tortib olinar edi.

Kasodga uchrash, qashshoqlikning tuban darajasi, amaldorlarning hokimiyatdagi sui-iste'molla'riga qarshi norozilik dehqonlarni lo'zg'alon ko'tarishga majbur qilar edi. Eng yirik qo'zg'alonlardan biri rahnamosi nomi bilan atalgan Baljuvon bekjigidagi (hozirgi Tojikiston) 1885-yilgi Vose' qo'zg'aloni bo'lgan. Qatorasiga ocharchilik yillaridan so'ng Baljuvon dehqonlari lik bora mo'lko'l hosil yig'ibolishgandi. Amlokdorlar esa nafaqat o'sha yil uchun, balki o'tib ketgan kamhosil yillar uchun ham xiroj to'lashni talab qildilar. Bunday soliqni adolatsizlik va talonchilik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortdilar hamda kambag'al bir dehqon rahnamoligida qo'zg'alon ko'tardilar. Amaldorlar zo'ravonligi va ijtimoiy zulmdan ezilgan minglab dehqonlar Vose' tevaragiga uyushdilar. 1885-yil iyul oyining so'nggi kunlarida dehqonlar armiyasi va amir Muzaffar lashkari qaqshatqich qattiq jangda to'qnashdilar. Yomon tayyorgarlik ko'rgan dehqonlar qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Rahnamolarining barchasi, jumladan, Vose' ham qatl etildi.

Boshqa bir yirik dehqonlar qo'zg'aloni 1888-yili Ko'lob bekligida bo'lib o'tdi. 1889-yil may oyida Kalif dehqonlari isyon ko'tardilar. Biroq bu qo'zg'alonlarning barchasi stixiyali va uyushmagan edi. Ular nafrat isyoni bo'lib, dehqonlar amlokdorlarni o'ldirishar, beklarning uylariga hujum qilib, yoqib yuborishar, mol-mulkini talashar edi. Bu isyonlar davlat asoslariga katta ta'sir o'tkaza olmasdi.

HUNARMANDCHILIKNING RIVOJLANISHI

Zamin bag`rida yashirib yotgan katta boyliklarga hali qo`l tekkizilmagan edi. Qayta ishlovchi sanoat korxonalari asosan shaharlarda joylashgan edi. Hunarmandlar ko`plab soliqlarni to`lashga majbur, o`z ustaxona va korxonalarini rivojlantirish uchun mablagiarga ega emasdi. Faqat amirlikning yirik shaharlarida kosiblar sexlariga o`xshash korxona tuzgan ustazodalar bo`lib, ular ham chog`roqqina ustaxonalarni zo`rg`a ta'minlar edi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmog`i gilam va namat tayyorlash bo`lgan. Gilamlarga chet ellarda ham talab katta bo`lib, Buxoro amirligi ularni katta miqdorda xorijga, jumladan, Rossiyaga sotar edi. O`rta Sharq, O`rta Osiyo shaharlari va Rossiya bozorlari Buxoro gilamlariga to`la edi. Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip-gazlama matolari, ko`nchilik, zardo`zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo`yoq va sovun mahsulotlari bilan ham tanilgan edi. Buxoro ustazodalarining oltin va **kumushdan** yasagan buyumlari, ayniqsa, dong taratgandi.

Buxoro amirligining deyarli barcha shaharlarida iste'dodli zargarlar mehnat qilgan ustaxonalar bo`lgan. Ular yasagan mahsulotning barchasi o`ziga xos nozik naqshlar bilan bezatilgan edi. Buxoro kulolchilik buyumlariga ham bozorda talab katta bo`lgan. Kulolchilik sanoati butun amirlikda keng tarqalgan edi.

ICHKI VA TASHQI SAVDONING RIVOJLANISHI

XIX asrning oxirida Buxoro amirligi Afg`oniston, Hindiston, Eron, Kavkaz va Rossiya bilan savdo aloqalariga ega bo`lgan. Buxoro, Chorjo`y, Kerki, Termiz va Kogon (Yangi Buxoro)da Rossiya firmalari o`z idora va omborxonalariga ega bo`lishgan. Rossiya va Buxoro amirligi o`rtasida tovar aylanishi o`sib bordi. Agar 1865-yilda tovar aylanishi atigi 5 million rublni tashkil etgan bo`lsa, 1913-yilga kelib, bu ko`rsatkich 66 million rublgacha ko`paydi.

Buxoro amirligi hududi ulkan foyda keltiruvchi **transit** savdo uchun katta ahamiyatga ega edi. Rossiya va Afg`oniston o`rtasidagi barcha savdo yo`llari Buxoro amirligi orqali o`tardi. Rossiya Afg`onistonga katta miqdorda movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerosin chiqarar edi.

1887-yilda amirlik hududi orqali temiryoʻl oʻtkazildi. Buxorodan 15 km masofada Yangi Buxoro va Kogon stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham barpo etildi. Endilikda Buxoro amirligi temiryoʻl orqali Toshkent, Orenburg va Moskva bilan bogʻlangandi. 1888-yilga kelib temiryoʻl Samarqandga qadar qurib kelinganida Buxoro amirligi hududida temiryoʻl stansiyalari yaqinida rus qishloqlari paydo boʻla boshladi. Yangi Buxoroda Rossiya davlat banki boʻlimi ochildi, ikkita paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasida ikkita mehmonxona barpo etildi. Eski Buxoroda ham Moskva xalqaro banki boʻlimi ochildi. Eski Buxorodagi qushbegi uyi va Rossiya siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo boʻlgan telefon aloqasi bilan bogʻlangan edi.

Biroq 1895-yil Buxoro amirligi bilan Rossiya bojxonasi yagona tizimiga birlashdi. Rossiya tovarlari uchun Buxoro hududi ichki bozorga aylantirildi va amirning Rossiyaga qaramligini oshirdi.

FAN VA MAORIF

Buxoro shahrida bir necha yuzlab masjidlar boʻlgan. Ibodatxonalarning barchasi musulmon an'analari sarchashmasidan suv ichgan betakror arxitekturaga ega edi. Masjidlar bir qavatli, ikki qavatli va koʻshkli qilib qurilgan. Buxoro shahrida 170 ga yaqin katta va kichik madrasalar boʻlib, ularda qariyb 10 ming **mullavachchalar** (oddiy oʻqituvchilar), **mudarrislar** (tajribali oʻqituvchilar), **imomlar** (oliy ruhoniylar) va **ulamalar** — mamlakat hukmdorining istalgan harakati ustidan **fatvo** (xulosa) berishga haqli boʻlgan qonunshunos olimlar xizmat qilishardi. Bu yerda nafaqat Buxoro amirligidan, qolaversa, Qozon, Orenburg va hatto Qrimdan kelgan talabalar ham tahsil olishardi. Musulmon olamining barcha goʻshalaridan ilohiyot bilimlarini oʻrganish maqsadida Buxoroga kelishardi. Madrasalar iqtisodiy jihatdan mustaqil boʻlib, ular daromadi qariyb 5 million tangaga boruvchi ulkan vaqf mulklariga ega edi.

Oʻquv muassasalari ikki bosqichdan, ya'ni boshlangʻich — **maktab** va oliy - **madrasadan** iborat edi.

Madrasa qoshidagi maktablarda imomlar o`qituvchilik qilishar edi. Bu yerda qur'onni o`qishga o`rgatilar edi. Maxsus maktablar hisoblangan **qorixonalarda** o`quvchilar qur'onni yodlashar va qur'onni qiroat bilan yoddan o`quvchi, ya'ni **qori** nomini olishar edi.

Madrasada ular arab alifbosi va yozuvini, qur'onning tafsirini va diniy bilimlar — huquqshunoslik va tarixdan ozroq miqdorda ta'lim olishar edi. Zamondoshlarining ma'lumotlariga qaraganda XIX asrning o`rtalarida Buxoroda madrasa talabalari soni 9 mingdan 10 ming nafargacha yetar edi.

Madrasa va masjidlar katta vaqf mulkiga ega bo`lib, undan tushgan foydadan o`qituvchilarga maosh va talabalarga stipendiya to`lanar edi. Mudarrislardan biri tushgan foydaning xarajat qilinishini nazorat qilar edi. Har yili madrasada bo`lib o`tadigan imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan din xizmatchisi umrbo`yi beriladigan stipendiya — **dahyak** olar edi.

Buxoro O`rta Osiyoning ma'rifat markazi hisoblanar edi. Bu yerga Xiva, Qo`qon, Hisor, Samarqand va boshqa ko`plab viloyatlardan talabalar kelib o`qishar edi. Samarqand o`zining o`tmishdagi fan vama'daniyat markazi maqomini yo`qotdi, masjid va madrasalar qarovsiz qoldi, o`qishni istaganlar Buxoroga ketishga majbur bo`ldilar.

Og`ir iqtisodiy ahvolga qaramasdan, Buxoro ilm-fan va san'at, she'riyat va musiqa markazi bo`lib qolaverdi. O`sha davr taraqqiyparvar doiralari g`oyalarini yorqin ifodalagan ajoyib o`zbek shoiri vamutafakkiri **Ahmad Donish** (Ahmad maxdum) Buxoroda yashagan va ijod qilgan edi. Uning "Navodir ul-vaqoe" (Nodir voqealar) va "Buxoroyi sharif mang`it amirlari muxtasar tarixi" asarlari uzoq asrlardan beri qaror topgan tartibotga qarshi yo`naltirilgan edi.

Ahmad Donish o`sha davrda O`rta Osiyo xalqlari ilg`or ijtimoiy fikrining e'tiborli vakillaridan biri bo`lib, u tabib, shoir, musiqachi, rassom, munajjim, olim va xattot bo`lgan. Ahmad Donish ma'rifatparvarlik harakati asoschisi deb hisoblanadi. Ahmad Donish o`z mamlakatidagi siyosiy ishlarga faol aralashuvchi tarixchi sifatida o`z asarida Buxoroning mang`it amirlari hukmronligi tarixini keskin va shafqatsiz satira ostiga oladi. "Risolai tarixiya" yoki "Tarixi saltanati

xonadoni mang'itiya" asarida ko'pgina tarixiy voqealarni yangicha yoritgan. Unda amir Doniyol hukmronligining so'nggi yillari va uch amir — Shohmurod, Haydar va Nasruilo hukmronligi to'g'risida muxtasar hikoya qilinadi. Ahmad Donish mustabidning cheksiz **hokimiyatiga** qarshi chiqib, davlat kengashi tuzishni taklif etadi. Asarda asosiy e'tibor amir Muzaffar (1860—1885) hukmronlik qilgan davr voqealariga hamda amir Abdulahad (1885—1910) hukmronlik qilgan davr boshidagi voqealarga bag'ishlangan, ya'ni muallif o'zining ko'z o'ngida yuz bergan va o'zi guvoh bo'lgan voqealarni tasvirlagan. Asarda podsho hukumatining O'rta Osiyoga uyushtirgan harbiy hujumlariga, Jizzax va Samarqandning bosib olinishiga katta o'rin ajratilgan. Ahmad Donish rasmiy tarixning eski an'alarini buzib, yangi siyosiy e'tiqodlarini jasurlik bilan e'lon qilgan va o'z davri ijtimoiy fikrida yangi ilg'or yo'nalishga asos solgan. U mamlakatdagi ilg'or harakatning asosiy kuchi xalqni ma'rifatli qilishda, deb bilgan. Buxoro amirining hukmronligini, badavlat qatlamlar va oliy ruhoniylarning aysh-ishratli hayotini tanqid qilgan. "Har bir kishi mehnat qilishi va o'z mehnati bilan topgan mablag'i hisobiga kun kechirishi darkor", — degan edi Ahmad Donish. U asarlarida o'qish va bilim egallashga da'vat etgan.

Shunday qilib, Buxoroda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida taraqqiyparvar demokratik asosga ega bo'lgan o'ziga xos madaniy hayot vujudga kelgandi. Iste'dodli o'zbek ustazodalarining ko'plab avlodlari tomonidan

yaratilgan milliy an'analar saqlandi va ijodiy rivojlantirildi. Buxoro zargarlari, kulollari va hunarmandlari buyumlari 1884-yilda Venada bo'lib o'tgan Butunjahon ko'rgazmasida ishtirok etib, shakllarining nafisligi va tasvirlari aniqligi bilan tomoshabinlarda katta taassurot qoldirgan edi.

Buxoro amirligi — Buxoro xonligini 1753 y.dan keyingi nomi; ashtarxoniylar o'rniga kelgan mang'itlar sulolasi vakillari o'zlarini amir deb atashgan. Shunga ko'ra, davlat B.a. deb atala boshlangan. 1920 y. Buxoro boskini natijasida tugatilgan.

1758-yil Rahimbiy vafotidan so'ng mang'itlar amirlik taxtiga uning amakisi Miyonko'1 hokimi Doniyorbiy (1758-1785-yy.) nomzodini surishadi. Lekin u

qat'iy markaziy hokimiyatni saqlab qololmadi. Mang'itlarning tarafdorlari va g'animlari o'rtasidagi o'zaro janjallar, joylardagi hokimlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari o'n yillarga cho'zilib ketdi. 1784-yili Doniyorbiyning bo'shligidan norozi bo'lgan Buxoro ahli qo'zg'olon ko'tardi va amir hokimiyatni o'g'li Shohmurodga (1785-1800-yy.) topshirdi. Shohmurod yangiliklarni Arkda saroy ahli guvohligida ikkita yirik amaldor - Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni qatl etishdan boshladi. Shundan so'ng Shohmurod Buxoro ahliga ularni bir necha soliqdan ozod etuvchi imtiyozli hujjatni tantanali tarzda topshirdi. Hujjatning matni tosh lavhada kesilgan bo'lib, u katta jome' masjidining ayvoniga o'rnatildi. Shohmurod „jo'l“(„jul“) deb nomlangan va urush holatida qo'shin saqlash maqsadida foydalaniladigan yangi soliq turini joriy qildi. Hokimiyatni o'z qo'lida jamlab olgach, u xonlik unvonidan voz kechdi va amirlik darajasida qoldi. Taxtga esa Shohmurod Chingizxon avlodlaridan bo'lgan Donishmandchini, keyinroq esa Abulg'ozini ko'tardi, lekin ular amalda hokimiyatga ega emasdilar. 1785-yili Shohmurod pul islohotini o'tkazdi hamda 0,7 misqollik (3,36 g) to'la qimmatli kumush tangalar va bir xil shakldagi oltin tangalarni zarb etishni yo'lga qo'ydi. U sud mahkamasiga ham shaxsan rahbarlik qildi. Shohmurod Buxoro amirligi tarkibiga Amudaryoning chap sohilidagi hududlarni, jumladan, Balx va Marvni qaytardi. 1786-yili u Karmanada xalq qo'zg'olonini bosdirdi, keyin Shahrisabz va Xo'jandga muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Shohmurod afg'on hukmdori Temurshohdan ustun kelib, asosan o'zbeklar vatojiklar yashaydigan janubiy Turkistonni o'z qaramog'ida saqlab qolishga erishdi. Amir Haydar (1800-1826-yy.) otasidan so'ng taxtga o'tirgan vaqtda butun Mavorounnahr uning hukmiga bo'ysinar edi. Haydarning taxtga ko'tarilishi ommaviy qo'zg'olonlar va qatllar bilan to'g'ri keldi. 1800-yili Marv turkmanlari bosh ko'tarishdi. Ichki janjallarga ko'p o'tmasdan Qo'qon bilan O'ratepa uchun urush qo'shildi. Haydar ushbu shaharni tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Amir Haydar davrida siyosiy tizim yakka hokimiyatchilik tomon intilayotgan markazlashgan monarxiyadan tashkil topgan edi. Amirga 4 ming kishigacha yetadigan byurokratik mahkama xizmat qilardi.

Armiyaning miqdori oshdi. Faqat **Buxoroning** o'zida 12 ming harbiydan iborat qo'shin turardi. Ahmad Donishning yozib qoldirishicha, Amir Haydar boshqaruv vaqtiga „har 3-6 oyda yuzaga keladigan to'xtovsiz feodal urushlar davri“ deya baho berish mumkin. Haydardan so'ng taxtga uning o'g'li Nasrullo (1826-1860-yy.) o'tirdi. Unga hokimiyat sari yo'l ochish maqsadida akalari Husayn va Umar o'ldirildi. Armiya va ruxoniylarga suyangan Nasrullo zodagonlarni jilovlash maqsadida feodal tarqoqlikka qarshi qat'iy kurash olib bordi. Hukmronligining birinchi oyida u har kuni 50-60 tadan kishini qatl qildi. Nasrullo shu paytgacha amirlik tarkibiga faqat nomigagina kirgan viloyatlarni birlashtirishga erishdi. Viloyatlarni boshqarishga o'ziga mute' bo'lgan „nasl-nasabsiz“ kishilarni tayinladi. Nasrullo amirligi chog'ida **Xiva** va **Qo'qon xonliklari** bilan Marv, Chorjo'y, O'ratepa, Xo'jand kabi chegarada joylashgan alohida hududlar uchun bo'lgan tinimsiz urushlar davom etib turdi. Shahrisabz va Kitob hukmdorlarining qarshiligi, ayniqsa kuchli bo'ldi. Bir necha harbiy yurishlardan so'ng **1853**-yilga kelib ular Buxoroga bo'ysindirildi. Amirlik tarkibiga faqat Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimidagi vohagina barqaror kirgan edi.

Tarix ilmi

Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad **Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy (1771 - 1831) edi.**

U «Gulshan ul-muluk» (Podshohlar gulshani) degan asar yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayor etilgan. Asarning ikkinchi qismida esa o'rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan.

XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning «Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar» Buxoro, Qo'qon va Qashq'arning ayrim voqea-hodisalari bayoni») kitobi ham tariximiz uchun muhim manba hisoblanadi.

Adabiyot

Xiva va Qo'qon xonlaridan farqli o'laroq, mang'it hukmdorlar madaniyat, xususan, adabiyot taraqqiyotiga qiziqish bilan qaraganligi, adabiy ijod bilan bog'liq biron-bir masalani hal etib berish yoki ijod ahliga sharoit yaratib berganliklari sezilmaydi.

Bu davrning o'ziga xos iste'dod egasi **Muhammadniyoz Nishotiy** (XVIII asrda yashab ijod etgan) o'rtacha, vaqti kelganda kambag'allik va sargardonlikda yashagan edi. Shoir 1778- yilda o'zining ajoyib «Xusnu Dil» dostonini yaratgan. o'zbek adabiyotining katta yutug'i sanalgan bu asarni shoir majoziy shaklda yozgan. Doston qahramonlari - Aql, Husn, Yurak, Xayol, Vafo, Nazar, Ishq va boshqalarning har biri g'oyat go'zal insoniy fazilatlarga ega. Raqib, Fasod, Nafs obrazlari esa yomon sifatlar hamda turli yovuzliklarning timsoli edi.

Asardagi obrazlardan biri ishq o'zining dadil va oqilona qarorlari, harakatlari bilan har xil mamlakatlarning turli qarashlarga ega hukmdorlarini bir bitimga olib keladi va hammaning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Oxir-oqibat ularning hammasi bir-birlari bilan yarashadilar. Ishq oldida ta'zim bajo keltiradilar va uning farmonlariga bo'ysunishga mayl izhor etadilar. Shu tariqa, Nishotiy dostonida odamlar va davlatlar orasidagi nizolar, baxillik va boshqa axloqiy qusurlar qoralanadi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarashlarda xayrli intilishlar, aql va oliyjanob niyatlar ustun keladi.

Bundan tashqari, Nishotiyning adabiy ijodidagi yana bir o'ziga xoslik - bu, adabiyotda munozara janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligidir. Bu o'rinda uning «Qushlar munozarasi» majmuasi katta ahamiyatga ega. Asarda o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan. Asarda laylak, zog', bulbul, tovus, to'ti, xumo kabi jami 14 ta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs tasvirlangan. Muallif qushlar bahsi orqali insonga xos takabburlik, xudbinlik, maqtanchoqlik kabi illatlarni qoralagan. U 38 g'azal, 14 muxammas va bitta qasida yozgan.

Bu davrning yana bir mashhur shoiri Mujrim-Obid edi (1748-1818). U «Mujrim» hamda «Obid» taxalluslari bilan ijod qilgan. Uning turkiy devonida 459, forsiy devonida 206 gʻazal bor.

Shoirning asarlarida jamiyatdagi nomukammallik, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik odamlar feʼlidagi illatlar tanqid ostiga olinadi. Ularda shoirning axloqiy qarashlari, pand-nasihatlar aks etgan.

Buxoroda Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola va Junaydulloh Hoziq kabi oʻnlab isteʼdodli shoirlar ham ijod qilganlar.

Volaning (1770-1842) koʻzi tugʻma ojiz boʻlsa-da, tabiat unga kuchli iroda, aql, xotira va qobiliyat hamda yoqimli ovoz inʼom etgan edi. Shoir oʻz sheʼrlaridan 2 ta devon tartib beigan. Bizgacha 3 ming misra sheʼrlari yetib kelgan. oʻz sheʼrlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuylagan.

Sanʼat

Buxoroda xattotlik va miniatura sanʼati yaxshi rivojlangan edi. Rassomlar asosan qoʻlyozmalarni naqshli bezash bilan shugʻullanib, koʻproq diniy mazmundagi kitoblarni bezata boshladilar. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, Amir Haydar davrida ijod qilgan Mir Masʼum Olamiyon «Axloqi Muhsiniy» kitobini hamda Saʼdiyning sheʼriy asarlarini rasm bilan bezaydi.

Mirzo Sodiq Jondoriy Nasrulloxon amirligi davrida qoʻlyozma kitoblaiga lavhalar, Saʼdiy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan. Qoʻlyozmalarni badiiy muqovalagan.

Yirik olim, faylasuf, shoir Ahmad Donish (1827-1897) 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom boʻlib ishlagan.

Ahmad Donish astronomiya, tibbiyot, riyozat, meʼmorchilik va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish sanʼatini ham oʻrgangan edi.

Ahmad Donish ko'chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo'lyozmalar ichida «Shohi darvish» (1849 yil), «Ajoyib at-tabaqot» (1847) va boshqa asarlar buning dalilidir.

Musiq

Buxoro yuksak ustozona musiq san'atining markazlaridan biri bo'lgan.

Chunonchi, XVIII asr oxirlarida Buxoroda vujudga kelgan «Shashmaqom» buning yorqin dalilidir.

Buxoro Shashmaqomi, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo'lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi «kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan.

Maqom ashulalarining she'riy matni uchun Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira va Mashrab singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan tuzilgan. Shashmaqom og'zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Maqom - musiqada bir qismli yoki turkumli cholg'u va ashula yo'llari; musiqiy uslub.